

**KONSTITUTSIYA MENIKI, SENIKI, BIZNIKI,
KONSTITUTSIYA - BARCHAMIZNIKI!**

Mirzakarimov Faridunmirzo

Toshkent davlat transport universitetining

2-kurs talabasi

Annotatsiya: Konstitutsiyaviy normalar nafaqat O‘zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Shunday ekan, navqiron avlodimiz vakillari tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz «Yoshlar Konstitutsiyasi» deya e’tirof etilayotgani bejiz emas.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, modda, qonun, fuqaro, shaxs, jamiyat, yoshlar, bolalar, huquq, norma, xalq, oila, davlat.

“O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar”.

Konstitutsiyamizning 15-moddasida belgilangan ushbu qoidaning hayotiy ifodasini yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro o‘z turmush tarzi, ish faoliyatida ko‘rishi mumkin. Oilaviy hayotda bo‘ladimi, jamiyatdagi munosabatlardami, o‘qish va ish faoliyatidami – barchasi Konstitutsiya va u asosida yaratilgan qonunlar bilan tartibga solinadi. Bolalikdan har bir inson ongiga singdiriladigan qoidalardagi “mumkin” yoki “mumkin emas” degan so‘zlar ham shu qonunlardan kelib chiqadi. Aynan shu qoidalarni o‘zlashtirish bilan shaxsda huquqiy madaniyat shakllanadi, qonunchilik haqida tushuncha paydo bo‘ladi. Bu, avvalo, maktabgacha ta’lim muassasasida boshlanib, tarbiyalanuvchilarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida ilk tushunchalar o‘rgatiladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida esa Birinchi Prezidentimizning 2001-yil 4-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishi asosida Konstitutsiyaning eng quyi bosqichi “Konstitutsiya alifbosi”dan boshlab atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, odobnoma hamda tarbiyaviy soat mashg‘ulotlarida Bosh qomusimizda belgilangan qoidalar haqida ma’lumotlar berib va bu jarayonlarni “Konstitutsiya olamiga sayohat” ya’ni yoshlarga Konstitutsiya moddalari “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda bir qator xalqaro konvensiyalar mazmun-mohiyati bilan birga ularning haq- huquqlari hamda majburiyatlari tushuntirib borilsa, ular yuqori sinflarga o‘tgach, ularga “Davlat va huquq asoslari”, “Konstitutsiyaviy huquq asoslari”, “Huquqshunoslik” bo‘yicha yildan yilga qilinayotgan sa’y-harakatlar o‘sib kelayotgan

yosh avlodning mamlakatimiz qonunchiligi haqidagi bilimi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va majburiyatlarini anglagan jamiyatning faol a'zolari sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasiz va bular orqali jamiyat hayotidagi ko'plab muammolarni bartaraf etishimiz mumkun.

Kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobga chiqishida yoshlar ishtirokisiz hech nimaga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlash davlatning eng muhim konstitutsiyaviy vazifalaridan biri bo'ladi. Fuqarolik jamiyati – yuksak fazilatga ega bo'lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei yuksak bo'ladi. Bu fikrlar – xalqimizning amri va xohish-istaklariga, tez sur'atga ega demokratik o'zgarishlar ehtiyojlariga asoslangan holda, O'zbekiston Prezidenti konstitutsiyaviy islohotlarning boshidayoq belgilab bergan ayni sohadagi o'zgarishlarning 9 ta ustuvor yo'nalishidan biriga taalluqli. O'z navbatida, “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida: “eski Konstitutsiyamizda yoshlar huquqlari va yoshlar siyosati haqida birorta ham so'z yo'qligi albatta adolatdan emas. Kelajak avlod haqida g'amxo'rlik dunyoning bir qator davlatlarining konstitutsiyalari va xalqaro shartnomalarda asosiy huquqiy norma sifatida mustahkamlangan. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz Konstitutsiyasiga kelajak avlod haqida alohida bob kiritish zarur”, degan fikrlar ta'kidlangan hamda bu boradagi hayotiy talablar kun tartibiga qo'yildi. Bunga asosiy sabab Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 14-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 9 million 654 ming 351 kishini tashkil etib, jami aholining 26,8 foiziga teng kelmoqda ya'ni, mamlakatimiz boshqa sohalar qatori nufus jihatidan ham katta davlatga aylanmoqda. Yurtimiz aholisi 2040 yilga borib 50 millionga yetishi, jamiyatning yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilishi kutilmoqda. Yoshlarimizga munosib hayot sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo'lishi lozim. Shu ma'noda, ayni masalaning yechimi ham mustahkam huquqiy poydevor – O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilindi. Umumxalq referendumida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda bu g'oya, tamoyil va talablar qay darajada o'z aksini topdi? Ushbu savolga javob berishda, avvalo, Asosiy qonunimizning alohida bobi – XIV bob “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlanganiga hamda undan yoshlarga oid qator normalar o'rin olganiga e'tibor qaratish darkor. Bunday yangicha yondashuv, shubhasiz, Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligidan yaqqol dalolatdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat tomonidan yoshlar huquqlari himoyalaniishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag'batlantirilishi

kafolatlab qo'yildi. Konstitutsiyamizning 79-moddasi birinchi bandida qayd etilganidek: "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi". Bosh qomusimizda, shuningdek, davlat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanishiga g'amxo'rlik qilishi belgilandi. Bu haqda Konstitutsiyaning 78-moddasi to'rtinchi bandida shunday deyilgan: "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi". Yana bir muhim yangilik: yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida Asosiy qonunga kiritildi. Konstitutsiyaning 79-moddasi ikkinchi bandiga ko'ra: "Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi". Shu o'rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan ilk marotaba uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojini ta'minlash davlatning vazifasi etib belgilanganini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shu kungachi ta'limga oida qoidalar konstitutsiyada aniq belgilanmagan edi ammo yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 50,51 va 52-moddalarda bu masala ham o'z aksini topdi. Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 53-moddasi birinchi bandida: "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi", deb ta'kidlangan. Zero, intellektual salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat yoshlarga g'amxo'rlik masalaasida o'z zimmasiga g'oyat muhim majburiyatlarni olgani alohida diqqatni tortadi. Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O'zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Shunday ekan, navqiron avlodimiz vakillari tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz «Yoshlar Konstitutsiyasi» deya e'tirof etilayotgani bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi - O'zbekiston, 2023
2. Karimova O. Huquqni o'qitish metodikasi.- TBPU. 2010
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun

2019.09.14

4. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. -T .: TDYuI, 2002, -87 b

Elektron manbalar:

1. <https://constitution.uz>
2. <https://ziyonet.Uz>
3. <https://parliament.gov.uz/news>
4. uzlidep.uz
5. insonhuquqlari.uz